

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDA JINSGA XOS BO'LGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TANLASH MEZONLARI

**Abdullayeva Dildoraxon Obijon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti magistranti*

**Abdullayev Ziyodbek**

*f.f.d Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turli tizimli tillarda gender omilining namoyon bo'lishi va ularni frazeologizmlar bo'yicha o'rganilishi tadqiq etilgan. Gender munosabatlarining eng xarakterli ifodasi sifatida leksik va frazeologik darajalar tan olinishi o'rganilgan. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi jinsga xos bo'lgan frazeologik birliklar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** gender, frazeologizm, madaniyat, semantika, leksik daraja, grammatik mezon.

Ma'lumki, til xalqning madaniy merosini aks ettiradi, tilning frazeologik darajasi esa xalqning madaniy munosabatlarini saqlaydi va o'zida namoyon qiladi. Frazeologik birliklarni gender aspektida o'rganish gender stereotiplarining madaniy o'ziga xosligini oolib beradi. Bu holat har qanday jamiyatda, jumladan, ingliz va o'zbek tilida ham mavjud. Ingliz tili madaniyatida mustahkamlangan gender stereotiplari ma'lum milliy va madaniy o'ziga xoslikka ega. Bu tushuncha o'zbek jamiyati taraqqiyotining milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalovchi o'zbek til madaniyatiga ham mos keladi.

Jins - belgilangan frazeologik birliklar "erkak", "ayol" tushunchalarini va bu tushunchalar haqidagi fikrlarni mustahkamlovchi va aks ettiruvchi obrazli til iboralaridir. [1]

O'rganilayotgan tillarning umumiyligi frazeologik fondidan faqat jinsga xos bo'lgan frazeologik birliklarni tanlab olish uchun jinsga xos bo'lgan frazeologik birliklarni aniqlashning aniq mezonlarini ajratib ko'rsatish zarur. Ingliz va o'zbek tillarida gender belgisi bo'lgan frazeologik birliklar uchun quyidagi tanlov mezonlarini taklif qilamiz:

1. Grammatik mezon. Ingliz tilida *he* (u –erkak), *she* (u –ayol), *his* (uning-erkak), *him* (uni, unga-erkak), *her* (uni, unga, uning –ayol) shaxs olmoshlari bilan ifodalangan frazeologik birliklar jinsga xosdir, chunki bu olmoshlar bevosita ma'lum bir jinsni bildiradi: *His Majesty's servants* — aktyorlar; *His Majesty's servants* – u mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan darajada kuchli shaxs; *he has no guts* – u xech narsaga yaramaydi, yaroqsiz va mas'uliyatsiz; *he is no conjurer* – u porox ishlab topmaydi; *he is so dumb you can sell him the Brooklyn Bridge* - u g'irt ahmoq; *he is the last man to* – uni bunga aqli yetmaydi. [2]

Biroq, ingliz tilidagi ko'pgina maqollarda *he* shaxs olmoshi bilan jinsni neytrallash hodisasi kuzatilgan, shu tufayli bunday maqollarni ayollarga nisbatan ham qo'llash mumkin: *he laughs best who laughs last* -oxirida kulgan yaxshi kuladi; *he that lives with cripes learns to limp* – qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi; *he that has a great nose thinks everybody is speaking of it* – ishtoni yo'qning xadigi cho'pdan, qo'rqqanga qo'sha ko'rindi. Jins belgisiga qaramay, bu maqollar jinsni ko'rsatmasdan shaxsni bildiradi. Bu ingliz tili grammatikasida antropotsentrizmning namoyon bo'lishidir.

2. Ba'zi tilshunoslarning fikricha, jinsi noaniq jumlalarda *he* olmoshi 3-shaxs birlik nominatsiyasi uchun ishlatilishi kerak. Boshqalar esa, aksincha, *he* olmoshi ayollarni o'z ichiga oluvchi ko'makchili gaplarda ishlatilmasligini ta'kidlaydilar va *they (their, them)* olmoshidan foydalanishni taklif qiladilar.

Masalan:

1. Anyone can do it if they try hard enough.
2. Who dropped their ticket?
3. Either Mary or John should bring a schedule with them. [2]

O'zbek tilida frazeologik birliklarning jins rangini grammatik mezon yordamida aniqlash qiyin, chunki unda muayyan jinsni bildiruvchi olmoshlar mavjud emas. Ingliz tilidagi *he* va *she* olmoshlari o'zbek tilidagi u olmoshiga mos keladi, u ham har qanday predmet, narsa yoki hodisani bildira oladi; ingliz tilidagi *his* va *her* olmoshlari o'zbek tilidagi uning olmoshiga mos keladi; inglizcha *him* va *her* olmoshlari o'zbek tilidagi unga olmoshiga mos keladi. Bundan kelib chiqadiki, o'zbek tilidagi olmoshlar erkak yoki ayol jinsiga mansublikni ko'rsatishga qodir emas. [3]

Morfologik mezon, birinchi navbatda, ingliz tilidagi frazeologik birliklar tarkibidagi erkak jinsini bildiruvchi – *er* va – *or* qo'shimchalari va ayol jinsini bildiruvchi – *ess* qo'shimchalarining mazmuniga asoslanadi. Ayrim misollar keltiramiz: *stock actor* — ma'lum bir teatrning doimiy gruppasi a'zosi bo'lgan aktyor; *the goddess of the moon* - (mif.) oy ma'budasi Artemida, Diana; *meddling duchess* – buyruq berishni yaxshi ko'radigan, lekin o'zi hech narsa qilmay, shovqin solib yuradigan ayol; *mistress of the Adriatic* – Adriatik bekasi, Venesiya.

Biroq, –*er* / –*or* qo'shimchasi bo'lgan komponentni o'z ichiga olgan inglizcha frazeologik birliklarning hammasi ham erkak jinsini ko'rsatmaydi, ular ayolni ham anglatishi mumkin: *high kicker* – o'yin-kulgini yaxshi ko'radigan beparvo qiz; *clean liver* - benuqson turmush tarzini olib boradigan odam; *cradle robber* — o'zidan ancha yoshrog'iga kishiga uylangan yoki turmushga chiqqan odam; *cub reporter* – yangi ish boshlaganr muxbir. Ot tarkibidagi –*ess* qo'shimchasiga kelsak, u faqat ayol jinsini ko'rsatishda davom etadi. [4]

O'zbek tilidagi otlarning morfologik xususiyatlaridan kelib chiqib, grammatik mezon kabi morfologik mezon ham o'zbek tilida unchalik yorqin kelmagan. O'zbek tilidagi otlarda -a qo'shimchasi jins ko'rsatkichiga ega: olim - olima, kotib - kotiba,

shoir - shoira, adib - adiba kabi. Bunday so'zlar o'zbek frazeologik birliklari tarkibiga kirsa, ular morfologik mezonni qo'llash chegarasini kengaytiradi.

Ingliz tilidagi frazeologiyaga kelsak, qo'shimcha indekslash asosida qurilgan quyidagi jins belgilariga ega so'zlar yangi jinsli frazeologik birliklar tarkibiga kiradi yoki kiritilishi mumkin: *princess* – *prince*; *actress* – *actor*, *mistress* – *master*, *duchess* – *duke*, *waitress* – *waiter*, *huntress* – *hunter*, *countess* – *counter*, *lioness* – *lion*, *hostess* – *host*, *stewardess* – *steward*, *author* – *authoress*; *governess* – *governor*, *mayoress* – *mayor*, *tigeress* – *tiger*, *poet* – *poetess* va boshqalar. [5]

Ingliz va o'zbek tillarida jinsi belgilab qo'yilgan frazeologik birliklarni tanlashning leksik mezoni quyidagi gender indeksli komponentlar tarkibiga qarab belgilanishi mumkin:

a) atoqli otlar, ya'ni, erkak va ayol ismlari: Boqi beg'am, Odam Atodan kolgan, Xo'ja Ahrorning moli, *big John* (harbiy jargon) yosh askar, *Pandora's box* - pandora qutisi, turli ofatlarning manbai kabi.

b) turdosh otlar, ya'ni, ma'lum jinsnii bildiruvchi jins belgisi leksemalar: payg'ambar yoshi – Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning yoshi (ya'ni 63 yosh), oppoq qiz - (so'zlashuv tilida erkalash.) shirin qiz (qizga odobli murojaat), podachining oshi - cho'pon ovqati, turli mahsulotlardan qo'shma ovqat, tirik beva – somon beva, *cub pilot* – yangi uchuvchi, *fine gentleman* – dunyoviy moda odami, olifta, *principal girl* - yetakchi aktrisa, *knight of fortune* – oson pulga o'ch ritsar, sarguzashttalab, *the old lady* – ona, kampir, *liberty man* - ta'tildagi yoki ishdan bo'shatilgan dengizchi.

v) jins ko'rsatkichi bilan qarindoshlik shartlari: o'zbek tilida: *ona suti og'ziga keldi* - holdan toygan, charchagan, toliqqan, oppoq dada – bobo, buva, otangga balli - (ma'qullah) oh, barakalla, yasha, yaxshi!, qiz uzatmoq (yoki chikarmoq) – qizni turmushga bermoq. [5]

### Xulosa

Shunday qilib, jinsi bilan belgilangan frazeologik birliklarni tanlash uchun sanab o'tilgan mezolarning har biri ma'lum o'zgarishlar yoki istisnolarga imkon beradi. Shunga asoslanib, u yoki bu frazeologik birlikning semantikasi bo'yicha ko'rsatilgan jinsnii aniq belgilash uchun barcha mezonlar kompleksda qo'llanilishi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begmatov E. Ismlarda jins tushunchasining ifodalanishi / O'zbek ismlari imlosi. (Ruschada yozish masalalari). – Toshkent: Fan, 1972. – B. 363–379.
2. Bondarko A.V. Teoriya morfologicheskix kategoriy. – Leningrad: Nauka, 1976. – 255 s.
3. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1989. – 112 b.

4. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 168 b.
5. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.
6. Jurayeva M,E. Media discourse features. Международный научный «Научный импульс» журнал № 3 (100), часть 1 Октябрь, 2022
7. Maftuna Erkin qizi Jurayeva, Shahnoza Zaitjon qizi Djumabayeva. Mediata'lim OAV va kommunikatsiyaning bir qismi. Scientific progress. Volume4\Issue4\2023, 234-241
8. Pulatova K,A. Jurayeva M.E, & Yusufjonova F,Q. (2023). Inglizcha-ruscha axborot kommunikatsiya texnologiyalari terminlari tarjimasi. Tadqiqotlar, 13(6), 62–67.
9. Jurayeva M,E. Pulatova K,A. & Yusufjonova F,Q. (2023). Mediadiskursni tashkil etish tamoyillari, tarkibiy va semantik tashkil etilishi . Tadqiqotlar, 13(6), 71–76.